



TASHKENT
INSTITUTE
OF FINANCE



“Иқтисодиётни стратегик ривожлантириш шароитида инновацион тадбиркорлик соҳасидаги долзарб масалалар”

мавзусидаги республика илмий-амалий
конференцияси



ЎЗБЕКИСТОН
ЖАМИАТИ
ЎРГАНИШЛАРИ
НАЗАРИЯСИ
ВА
ПРАКТИКАСИ
2017-2021



Тошкент шаҳри
2019-йил 22-апрел

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА УРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ



**“ИҚТИСОДИЁТНИ СТРАТЕГИК РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА
ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК СОҲАСИДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР”**

**мавзусидаги республика
илмий-амалии конференцияси
материаллари тўплами**

**Тошкент шаҳри
2019-йил 22-апрел**

c) ilmiy-tadqiqot muassasalari, innovatsion markazlar, loyiha-konstruktorlik byurolari
d) o'zlarining yangi texnologiyalarini tadbirkorlarga sotishdan (foydalanishga berishdan) olingan daromadlar bo'yicha;

e) yangi texnologiyalarni mahalliy tadbirkorlikka transfer qiluvchi tashkilotlar bu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

3) Ilg'or texnologiyalar markazi rezidentlari 2022-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda: er solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yagona soliq to'lovidan;

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda tuziladigan ro'yxatlar bo'yicha innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida shaxsiy ehtiyojlar uchun xorijdan keltiriladigan asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, reaktivlar va butlovchi buyumlar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'implardan tashqari) ozod qilindi. Shu imtiyozlar samarasi natijasida 2018 yil sarhisobiga ko'ra, "Biz 2018-yilga 'Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili' deb nom berib, Davlat dasturi doirasida, 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirganimiz, o'tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimiz natijasini ko'rsatib turibdi", – dedi Shavkat Mirziyoyev¹⁷⁰. Shu bilan birga joriy yilda aholining real umumiy daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshgani qayd etildi. Soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirilgani, bu o'tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016 yilga nisbatan esa 32 barobar ko'p bo'lganiga e'tibor qaratildi. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirilgan. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari natijasida 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'lgan. Bu amalga oshirilgan ishlarning samarasi ko'rib turganimizdek joriy yilning o'zidayoq o'z ahamiyatini ko'rsatib aholining real daromadlari oshishiga olib keldi. Agar dastur bosqichma bosqich amalga oshirilib borsa, yurtimiz rivojiga hissa qo'shib mamalakatimiz salohiyatini yanada rivojlantiradi. Zero biz innovatsion texnologiyalar rivojlangan zamonda yashamoqdamiz va amalga oshirayotgan faoliyatimiz har jabhada shunga mos bo'lmog'i lozimdir.

IQTISODIYOTIMIZNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

i.n.f dots G.Xalmatjanova, Q Homidov FDU talaba

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda raqobat muhitini paydo qilib, bozor sharoitidagi turli o'zgarishlarga tezda moslasha olishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishsohasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratishi bilan iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligida muhim o'rin tutadi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarni rivojlantirish va isloh qilish hozirgi kunning asosiy vazifasi va shu yo'l orqali davlatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy vazifalarini hal etish belgilab olindi. Bunga ko'ra respublikamizga chet el investitsiyalarini keng jalb etish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, innovatsion tadbirkorlikka erkinlik va imtiyozlar berish va zarur shart sharoitlarni yaratish ustuvor yo'nalishlar sifatida maqsad qilib olingan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yana bir muhim jihati, kuchli raqobat muhitida mudom rivojlanishga majbur bo'ladi. Bozorning joriy shartlariga moslashishga to'g'ri keladi, boshqa tadbirkorlik subyektlaridan ustun bo'lishi ularning foyda miqdori oshishi manbai

¹⁷⁰ O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng ustuvor vazifalari haqidagi Oliy majlisga Murojaatnomasi 28.12.18 yil

hisoblanadi. Zero, bozor iqtisodiyoti insonlar o'zlari istagandek hayot kechirishi uchun barchaning tinimsiz harakatida bo'lishini talab qiladi. Bu esa o'z o'zidan iqtisodiyotimizni o'sishiga va aholining real daromadlari ortishiga olib keladi.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda raqobatning muhim omillari quyidagilar hisoblanadi:

- Bozor iqtisodiyotining zarur sharoitlariga tezda moslashib, chuqur ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvi natijasida uning yuqori samaradorligini ta'minlaydi;
- Bozordagi talab va talkif mutanosibligini hisobga olib, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan Tovar va xizmatlarni bozorga tezda yetkaza olish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadi;
- Raqobat muhitini yaratish orqali iste'molchilar uchun arzon va sifatli Tovar va xizmatlar taklif qiladi;
- Bozor iqtisodiyoti investitsiyasiz mavjud bo'lmaydigan innovatsion tadbirkorlik muhiti va ruhini yaratadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda kichik biznes va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, soha subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samaralar bermoqda. Jumladan, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar soha rivoji va ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga hizmat qilmoqda.

Tahlillarga murojat qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida samarali va salmoqli ishlar qilinayotganini ko'rishimiz mumkin.

2018 yil yakunlari bo'yicha respublikamizda jami 48,9 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi va bu o'tgan 2017 yil shu davriga nisbatan olib qaraganimizda 28,2 % ga ko'p demakdir. Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sohalar bo'yicha tahlil qilinganda, savdoda 23,9 %, sanoatda 23 %, qurilish tarmog'ida 13 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,4 %, yashash va ovqatlanishda 8 %, tashish va saqlashda 4,3 % ni tashkil qilmoqda va mamlakatimiz YaIMda kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi 59,4 % ni egallamoqda.¹⁷¹

Tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimi bo'yicha eng ko'p Toshkent shahrida – 12071 ta, Toshkent viloyatida – 5080 ta, Samarqand viloyatida – 4312 ta, Farg'ona viloyatida – 3780 ta, Andijon viloyatida – 3131 ta, Buxoro viloyatida – 3024 tani tashkil qilmoqda.

INVESTITSIYA FAOLIYATIDA RISKLAR VA ULARNI BOSHQARISH.

*Ilmiy rahbar: dot. Sobirova L.Sh.
TMI IB-1 magistranti Sobirov B.O.*

Investitsion faoliyatda risk – bu investitsiyalarni qisman yoki to'liq yo'qotish, kutilgan daromaddan kamroq foyda olish va loyihada ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaslik xataridir. Loyihadan qanchalik ko'p miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskli hisoblanadi.

Hozirgi kunda loyiha risklari deganda loyihani amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisini ham anglatadi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Risk – bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarining paydo bo'lib qolish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bulgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan noumidsizlikdir.

¹⁷¹ Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Шаймарданова Д.Р. Абдусаматов А.А.,	300
Развитие инновационного предпринимательства в Узбекистане.....	
Toshmuhammedova D. Naimov N	301
Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda xorij tajribasi va O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari.....	
To'rayev Sh.Sh. Sharipov N.G'.	303
Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion tadbirkorlikning ahamiyati.....	
Махкамов Бунёд Буриевич	304
Корхона иктисодий самарадорлигини баҳолаш.....	
Зиявитдинова Н.Б.	306
Корхона ходимларини бошқаришнинг инновацион усуллари.....	
Шаринов Ил'с	308
Персонални бошқариш тизимини такомиллаштириш ("Ўзбекистон темир йуллари" АЖ мисолида).....	
O'razova M, Berdiyeva O'	309
Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish rivojlantirish.....	
Рахмедова Мадина	310
Суверенный кредитный рейтинг как показатель надежности вложений в Республику Узбекистан.....	
Шерқўзиева Н.А.	312
Турли давлатлар молия бозорларида дивидендлар билан боғлиқ муносабатлар.....	
Абдуллаев А. Рустамова Ш	313
Организация и развитие инновационного бизнеса.....	
И.Сулейманов,	315
Необходимость инновационного предпринимательства.....	
Имомов Умиджон Ғайратжонович	316
Инновацион иктисодиёт шароитида илғор хориж мамлакатлар банк сугуртасининг таҳлили.....	
Имомов Умиджон Ғайратжонович	318
Понятие и экономическая сущность банковского страхования.....	
Ergasheva Sh, Esonova J.	320
Innovatsion tadbirkorlikni faoliyatini yurtimizda qo'llab quvvatlanishi	
G.Xalmatjanova, Q Homidov	321
Iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati.....	
Sobirova L.Sh. Sobirov B.O	322
Investitsiya faoliyatida risklar va ularni boshqarish.....	
Sharapova M, Ganiyev A	324
Internal audit and its role in an organization.....	
Шаймарданова Д. Холиков С.	325
Организация и развитие инновационной предпринимательской деятельности.....	
Абуталипова Г, Назарова Г.Х.	326
Развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане.....	
Назарова Г.Х. Рахмонова Ш.У.	327
Основные направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане	
Назарова Г.Х. Яфарова А.	328
Роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в современных условиях.....	
Г.Х.Назарова, Чабкаев Г.	329
Пути развития малого бизнеса и предпринимательства на основе международных стандартов.....	